

MAHALLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI OSHIRISHGA DOIR

Olimjonova Mardona Hamidjon qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mahalla qadimdan har bir jamiyatning negizi hisoblangan va hozrgi kunda ham o'zi alohida bir bo'g'in sifatida faoliyat olib bormoqda. Ushbu maqolada mahallalarda yoshlar va katta yoshlilar o'rtasida kitobxonlikning targ'ib qilinishi, mamlakatimizda kitobxonlikni rivojlantirish to'g'risida olib borilayotgan chora-tadbirlar xususida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Mahalla, kitobxonlik, qaror, ilm-fan, boshqaruv, shaxs, davlat, rivojlanish, qonun, ma'naviyat, jamiyat.

ON INCREASING READING CULTURE IN NEIGHBORHOODS

Olimjonova Mardona KHamodjon qizi

Uzbek State Institute of Art and Culture 1 years student

Annotation: *The neighborhood has been considered the basis of every society since ancient times and even today it is functioning as a separate link. In this article, information is provided about the promotion of reading among young people and adults in the neighborhoods and the measures being taken to develop reading in our country.*

Keywords: *neighborhood, book reading, decision science, management, person, state, development, law, spirituality, society.*

O'zbekiston Respublikasining dastlabki mustaqil bo'lgan davrlaridan boshlab jamiyatga, mahallalarga e'tibor berila boshlandi. Biz buni O'zbekiston Respublikasining qomusi bo'lmish Konstitutsiyamizdan bilib olishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining bob va moddalarida jamiyat, mahalla va oila haqida o'rinlar belgilandi.

Jamiyat- arabcha so'zdan olingan bo'lib "jamo, jamlangan, birlashgan" degan ma'nolarni anglatadi. Uning yana bir ma'nosi lotinchadan olingan bo'lib, "umumiy" kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui. Jamiyatdagi hamma narsa muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Insonlar faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bular ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyatlari va ularga moye keluvchi munosabatlardir. Jamiyat moddiy ishlab chiqarishsiz bo'lmaydi. Unda insonlarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa bo'lgan ehtiyojlari qondiriladi. Jamiyatda jamiyatning tabiat bilan o'zaro ta'siri namoyon bo'ladi.

Hozrgi O'zbekistonda jamiyat tarqiyotining eng asosiy muammosi insonlarning, ayniqsa yosh avlodning ma'naviy dunyosini shakllantirish va boyitish, ularni istiqloq

mafkurasi asosida tarbiyalash o'zbek halqining boy madaniya va ma'naviy merosi, qadriyatlarini, an'analari va urf-odatlarini egallashlari uchun shart sharoit yaratishdir. O'zbekistonda fuqarolik, huquqiy, demokratik dunyoviy jamoa barpo etilmoqda.

Albatta hozrgi davrda mahallaga e'tibor bu eng dolzarb mavzularda biri bo'lsa kerak. Chukni har bir voyaga yetgan shaxs mahalla orqali butun jamiyatga naf keltirishi mumkin. Shuning uchun oila, mahalla va jamiyat so'zlari hozrgi davrning eng bir-biriga uyg'unlashgan so'zlaridir. Misol qilib aytadigan bo'lsak har bir qiz yoki o'g'il oila orqali mahallani tanidi. Har bir mahallada voyaga yetgan inson bo'lsa jamiyatga intiladi. Shunday qilib ular doimo bi-biriga uzviy bog'lanadi. [1]

Mahalla – O'zbekistonda ma'muriy-hududiy birlik; o'zini-o'zi boshqarishning o'zbek xalqining an'analari va qadriyatlariga xos bo'lgan usuli.

Davlatimiz rahbarining birinchi prezidentlik lavozimida birinchi ish boshlaganlarining dastlabki kunlaridanoq yoshlar masalasiga juda katta e'tibor bilan qaraganligi hammamizga ma'lum. 2019-yil 19-mart kuni O'zbekiston Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot-texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ham aynan yoshlar masalasi, ularning qamrov darajasini kengaytirish, ularni jamiyat taraqqiyotida asosiy kuch ekanligiga alohida e'tibor qaratib, 5 ta muhim tashabbusni taklif etdilar. [2]

“Mahalla” atamasini kelib chiqishi ham uzoq tarixga taqaladi va u arabcha so'z bo'lib o'zbek tilidagi “joy” ma'nosini bildiruvchi “mahallun” so'zidan kelib chiqqan.

“Mahalla” tushunchasi turli mintaqalarda mahallot{joy}, guzar, jamoa, elat, elod nomlarida atalib kelgan. Mahalla milliyligimiz timsoli hamda qadriyatlar va urf-odatlarini abloddan avlodga yetkazuvchi ijtimoiy makonsifatida, o'zligimizni anglashga, milliy g'urur va vatanparvarlikni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bugungi mavzuda mahallar tarixi haqida so'z yuritmoqchi emasmiz. Zero qadim zamonlardayoq yurtimizdagi mahallalar ijtimoiy hamkorlik maskani sifatida namoyon bo'lgani manbalarda berilgan.

Mahalla ahli jamoaga oid masalalar hal etishdan tashqari, muhtojlarga yordam ko'rsatish, to'y va tazilarda xonadon sohiblari bilan bir tanu bir jon bo'lib, uning og'irini yengil, mushkulini oson qilishda ham ishtirok etgan. Mahalla ahli tomonidan qabul qilingan qarorlar barcha tomonidan og'ishmay ijro etilgan. Nega deganda, bunday qarorlar shunday qabul qilinganki, uning odilona va tog'ri ekanligi har qanday shubhaga o'rin qoldirmagan.

O'zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida”gi PQ-92-son Qarori ham hozrgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lmish mahallalarda ishlarni to'g'ri tashkil etishga qaratilgan muhim hujjatlardandir.

Ushbu qarorda “Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimi yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallada hal etish, ta'lim muassalarida ma'naviy va ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirishga oid bir nechta punktlardan iborat vazifalar belgilandi.

Ushbu hujjatga muvofiq har bir shaharcha, qishloq, ovulda shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etiladi. Mahallarda yoshlar ro'yxatini shakllantirish, ular bilan muloqot tizimini takomillashtirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tqazish, muammolarni hal qilish kabi muhim vazifalar doirasida aniq mazmunli ishlar qilinishi belgilangan. Shuningdek madaniyat va san'atni targ'ib qilish, sog'lom sport tarzi va sportni ommalashtirish, axborot texnologiyalardan samarali foydalanishni tashkil qilish, ma'naviyat va kitobxonlikni targ'ib qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish, tadbirkorlik g'oyalarini qo'llab quvvatlash yo'nalishlari borasida yetakchilarning o'zlariga birlashtirilgan mahallalardagi ishlarni amalga oshirishga oid aniq vazifa va ko'rsatmalar berilgan.

Yurtimiz aholisining 30 foizini 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb hunar egallashi uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratilgan. Shu bilan birga yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tqazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi.

Shu kunlarga insonlarning bo'sh vaqtini oqilona yuritish asosan madaniy- ma'rifiy muassasalar oldidagi muhim vazifalardan biri deb hisoblanib kelingan. Endilikda esa yoshlar ichiga kirib borish, ular bilan yaqindan muomala o'rnatish, ularning dardlari, muammolari, qiziqishlari haqida MAHALLALARda turli tadbirlarni tashkil etish orqali o'rganish yo'lga qo'yilmoqda.

Madaniyat tadbirlar albatta majlislarga o'xshab qolmasligi kerak.

Ma'naviy- ma'rifiy ishlarni shunday tashkil etish kerakki, yoshlar o'zlari qiziqi, o'zlarining tashabbuslari bilan, hojlab tadbirlarga kirsinlar. Yoshlarning tadbirlarga kirishni hojlamasliklarini quyidagi sabablarini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Berilayotgan ma'lumotlarning yangi emasligi;
2. Aksariyat tadbirlar mazmuni, undagi ishtirokchilarning bir xilliklari;
3. Tadbirlar senariysining mukammal emasligi;
4. Ma'naviy- ma'rifiy ishlar yashkilotchilarida badiiy did, sahna madaniyati hamda sahna qonun-qoidalarini bilmasliklari, tashkilotchilik qobiliyatining yo'qligi;
5. Tadbirda tashkiliy va ijodiy ishlarning yo'qligi;
6. Qiziqarli mavzular tanlamaganliklari;
7. Ma'ruza (agar davra suhbat bo'lsa) auditoriyani boshqara olmasligi;
8. Tadbirlarga kerakli kontingentlarni jalb qilinmaganliklari;
9. Tadbir o'tadigan paytni noto'g'ri belgilaganliklari va shunga o'xshash bir qancha muammolar mavjudligi ma'naviy- ma'rifiy ishlarimiz samaradorligiga erishishga halaqit beradi.

Bitta tadbirni o'tqazish bilan inson o'zgarib yoki tarbiyalanib qolmaydi. Buning uchun tizimli ishlarni amalga oshirish lozim. [3]

Hozirgi davrda yoshlarimiz ma'naviyatini oshirish eng dolzarb ishlarimizdan biri bo'lib kelinmoqda. Milliy madaniyatimizga, ma'naviyatimizga salbiy ta'sir ko'rsatadigan turli xurujlardan yoshlarni asrash, jaholarga qarshi ma'rifat bilan kurashish g'oyasini o'zida jamlagan dunyoqarash negizida tarbiyalash masalasiga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Yoshlarning har tomonlama manfaatlarini ta'minlash, ularning orzu intilishlari,

qobiliyat va salohiyatlarini ro'yobga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Eng muhimi, farzandlarimizni shonli taximizda o'chmas iz qoldirgan buyuk otabobolarimizning munosib avlodlari sifatida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Muhtaram prezidentimiz aholi orasida kitobxonlik madaniyati va ma'viyatini oshirish yo'lida samarali islohotlar, yangilanish va o'zgarishlarni amaliyotga tadbiiq etgan edi. Qaysi rivojlangan xalq yoki davlat bo'lmasin ularning shu darajaga erishishida birinchi o'rinda ma'naviya hayoti sayqallanib, kreativ fikrlash doirasini oshiradigan, tarix va kelajak istiqbolini bo'lab turguvchi kitob va kutubxonalarning ahamiyati beqiyosdir. Xalqimiz azal-azaldan kitob o'qishga, u bilan oshno bo'lishga intilib kelgan. Xalqimiz shuuridagi bu qadimiy an'ana bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Mustaqillik yillarida yurtimizda qadriyatlarini qayta tiklash ma'naviyatni yuksaltirish, milliy g'ururni paydo qilish, adabiyot va san'atni ma'naviyatning negizi sifatida rivoj toptirish, erkin fikr, ezgu so'z va hayrli amallarga bosh bo'lish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil qilib kelmoqda. [4; 3 B]

Aholi, eng avvalo, yoshlar o'rtasida kitobxonlik saviyasini oshirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida har yili "Eng yaxshi kitobxon maktab", "Eng yaxshi kitobxon mahalla", "Eng yaxshi kitobxon oila" kabi yo'nalishlarda ko'rik-tanlovlar o'tqazish, yakuniy bosqich g'oliblarini taqdirlash uchun qimmatbaho sovg'alar, jumladan, yurtimizda ishlab chiqarilgan avtomobillarni mukofot tariqasida berish, o'ylaymanki, bu juda katta rag'bat bo'ladi. [5; 530 B]

Bugungi kunda nafaqat kitobxonlik balki boshqa sohalarda ham katta o'zgarishlar katta rag'batlar bo'layotgani bejiz emas. Bularning hammasi davlat siyosatining kuchliligi, mamlakat boshlig'ining aqlli insonligidan dalolat beradi. Chunki ayanan turli sohalardagi yutuqlar va albatta o'zgarishlar mamlakatni rivojlantiradi. Sohalarning taraqqiy topishi esa insonning yuksalishi belgisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi {200-2005}
- 2.Prezident Sh. Mirziyoyevning Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori. \\Xalq so'zi. -2018.-15avg.
- 3.V.Alimasov,Y.Manzarov.O'zbekistonda ma'naviy - ma'rifiy soha; nazariya va amaliyot.Toshkent,2014.1086.
- 4.Sh.Mirziyoyev."Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". -1 jild.- Toshkent:O'zbekiston, 2017.-B.592.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risidagi "gi qarori. www.lex.uz